


## YALPI HUDUDIY MAHSULOT






Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–martida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM ) hajmi joriy narxlarda 7 303,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 1,5 % ga o'sdi.



YaHM deflyator indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 110,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 5,7 % ga yetdi.




### Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2020- yil	2021- yil	
<b>I. YaHM</b>	<b>6 527,2</b>	<b>7 303,8</b>	<b>101,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6 292,4	7 020,1	101,5
 Mahsulotlarga sof soliqlar	234,8	283,7	102,2
<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>6 292,4</b>	<b>7 020,1</b>	<b>101,5</b>
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 168,5	1 415,4	106,2
<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>2 139,2</b>	<b>2 268,5</b>	<b>99,3</b>
 sanoat	1 673,9	1 698,3	95,2
 qurilish	465,3	570,2	114,1

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	<b>Xizmatlar</b>	<b>2 984,7</b>	<b>3 336,2</b>	<b>101,2</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	666,9	750,5	100,5
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	493,4	570,9	104,2
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 824,4	2 014,8	100,7

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 1 908,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 ga kamaygan.




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 20,2 % ni, sanoat tarmog'i 24,2 % ni, qurilish 8,1 % ni va xizmatlar sohasi 47,5 % ni tashkil qildi.




### Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiqa nisbatan % da)

		2020-yil	2021-yil
	<b>I. YaHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,4	96,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,6	3,9
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	18,6	20,2
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>34,0</b>	<b>32,3</b>
	Sanoat	26,6	24,2
	Qurilish	7,4	8,1
	<b>Xizmatlar</b>	<b>47,4</b>	<b>47,5</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10,6	10,7
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,8	8,1
	boshqa xizmat tarmoqlari	29,0	28,7




**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

**2020- yil**





**2021- yil**



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,1 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 20,2 %), sanoatda – 103,2 % (32,3 %), qurilishda – 100,5% (8,1%), xizmatlar sohasida – 102,8 % ni (47,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 103,0% (10,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 100,2 % (8,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,5 % dan (28,7 %) iborat bo'ldi.



**Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,1 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,9 f.p.), va qurilish tarmog'i – 1 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 0,5 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 2,3 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,1 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.



2021- yil yanvar-mart oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissi  
(jamiqa nisbatan % da)







2021-yil yanvar-martda YaHM deflyatori indeksi 2020-yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 110,2 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida – 114,0 % va xizmat ko'rsatish sohasida – 110,4 % qayd etildi.



**Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



**Yanvar-mart oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi**  
(jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 61,2 %ni tashkil qildi (2020- yil yanvar-martida – 59,5%).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.